

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.

**Boboyeva Muyassar Norboyevna**

[m.n.boboeva@buxdu.uz](mailto:m.n.boboeva@buxdu.uz)

Buxoro davlat universiteti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun dars o'tishda qo'llaniladigan usul- uslublar ko'rsatib o'tilgan. Darsni to'g'ri tashkil qilish, usul va uslublarni to'g'ri tanlab, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, usul-uslub, ta'lif, o'quvchi, qobiliyat, diqqat, muammoli savol, fikr.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarga nafaqat bilim berish balki, ularning kreativlik qobiliyatlarini ham shakllantirish kerak bo'ladi. Chunki hozirgi zamonda zamon bilan hamnafas yurish juda muhim sananadi. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta'larning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor dolzarb vazifalardan biri. Yangi va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan darslar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil o'r ganib, tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga va o'quvchilarning kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Darsni to'g'ri tashkil qilish o'quvchilarning taqdim etilgan bilimlarni yaxshi egallahashlariga, o'zlarini mustaqil fikrlab xulosa qilishlariga, do'stalaridan o'r ganishlariga, yangi fikrlar yaratishlariga turtki bo'ladi.

Darsning qanday o'tishi darsning kirish qismida o'quvchilarni darsga jalgilishimizga bog'liq. Chunki o'quvchi darsga to'liq tayyor bo'lishi uchun diqqatini jamlashi muhim. O'quvchi diqqatini jalgilish uchun darsning kirish qismida o'quvchilarga mavzuga mos jumboqli, muammoli savol berish kerak bo'ladi. Savolimiz shunday bo'lishi kerakki, o'quvchi bu savol javobini topishi uchun

## ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI'

darsning oxirigacha mavzuni o'rganishga majbur bo'lsin. Dastlab o'quvchilar bu savol yuzasidan ozroq muhokama qilishlariga sharoit yaratib bering. So'ngra muhokamani yakunlab, yangi mavzuni o'tish kerak. Shunda dars oxirigacha o'quvchi diqqatini tuta olamiz. Biz dars davomida o'quvchilarni yuz foiz aktiv holda ushlab turishimiz kerak. Buning uchun esa dars davomida vaqt - vaqt bilan muammoli savol berib turish kifoya qiladi. Darsda o'quvchilar qiziqishlarini oshirishda o'qituvchining kreativligi juda muhim. Zerikarli dars muhitining saballaridan biri –o'quvchilar diqqatining pastligi, darsga befarqligi va dangasaligi. Har doim bir xillikdan qochish kerak: O'tilgan mavzuni so'rash, yangi mavzuni odatdagidek tashkil qilish usulida o'tilgan dars samarasi bo'lmaydi. Sayohat metodi orqali darsni tashkil qilish. Dars boshida o'quvchilarga "Bugun biz sizlar bilan darsimizda sayohat qilamiz" deymiz. So'ng o'tiladigan mavzuni bir nechta qismlarga bo'lib olamiz. Bunda o'tilayotgan mavzuning asosiy qoida, fikrlarini alohida qog'oz kartochkalarga yozib oling. O'quvchilar ana shu berilgan fikrlarni maktab atrofida joylashgan korxona, savdo va boshqa ob'yektlarga biriktirib olishlari kerak bo'ladi. Shunda o'quvchilardan do'stining 1- ma'lumotni qaysi ob'yektga joylashtirganini so'rash kifoya. O'quvchidan "Ushbu ob'yektga qaysi ma'lumotlar biriktirildi?" deb so'rash mumkin. Bu usulda o'quvchilar darsda berilgan barcha ma'lumotlarni eslab qolishlariga, hamda, o'tilgan mavzudagi ma'lumotlarni darsning o'zidayoq eslab qolishga erishiladi. Yangi mavzuni eslab qolishda butun sinf yoki kichik guruhni qamrab olib, berilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishlari so'raladi. O'quvchilarga ko'proq o'zlarini mantiqiy o'ylashga va mustaqil ravishda fikrlashga undaydigan o'ylantiruvchi savollar berish kerak. Bunday so'rovlari o'quvchilarda yangi kreativ fikrlar tug'ilishiga ko'makchi bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo'llanilishini takomillashtirish istiqbollari. *Science and Education* 2:8 (2021), 476-485 b.
2. Boboyeva M., Qutliyeva Z. (2019). Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. *J. Global Research in Math. Archives*, 6(11), 10-12.

**ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI'**

3. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. Research Jet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.
4. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma'lumotlarni singdirish. Science and Education 2:8 (2021), 496-504 b.